



PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI VA UNING MOHIYATI

Saydullayeva Barchinoy
Andijon davlat pedagogika instituti
maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası
o'qituvchisi

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226634>

Annotasiya: Maqola ta'lim klasteri mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda ta'lim klasterining nazariy asoslari va uning xususiyatlari ochib ko'rsatilgan. Klaster elementlarining o'zaro aloqaga asoslangan belgilari yoritib berilgan va o'rganilgan tadqiqotlar natijasida ilmiy xulosalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: klaster, ta'lim klasteri, model, nazoratchi, element, sinergitik, model, klaster subyektlari, nazoratchi, element, sinergitik, yaxlitlik, innovatsiya, biznes tuzilma.

“Klaster” so'zi ilmiy atama sifatida birinchi marta Maykl Evgeniy tomonidan ishlatilgan inglizcha so'z bo'lib, clyster (dasta, to'plash, bir-biriga juda yaqin bo'lgan narsalar yoki odamlar hamkorlik tizimi) kabi so'zlar ma'nosiga borib taqaladi. Klaster atamasi o'tgan asrning 90-yillarida iqtisodiy adabiyotlarda faol qo'llanila boshlandi va xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, u asosan, hozirgi kungacha iqtisodiyot va tibbiyot sohalarida keng qo'llanilgan. Rus olimi S.P.Postnikov ta'rifi bo'yicha, Klaster bu - birlashtiruvchi murakkab tuzilmadir-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning yagona butunligi, demakdir. Ta'lim klasteri esa – ta'lim muassasasi va ish beruvchilarning hamkorlik asosida korxonaga uchun mutaxassislarni bir necha bosqichli kadrlar tayyorlashning ajralmas tizimi bo'lib, uning bir qancha afzalliklari mavjud. O'zingizga ma'lumki, ba'zi maktablar markazdan yiroqda (olis hududlarda joylashgan) va juda kam resurslarga ega va ta'lim nazoratchilari ularga kamdan-kam tashrif buyurishadi va kerakli maslahat va metodik yordamlarni o'z vaqtida olmaydilar. Xalqaro tajribaga e'tibor qaratadigan e'tibor qaratadigan bo'lsak, shu muammoni hal qilish maqsadida 1960-yillarda Lotin Amerikasida jamiki, ta'lim resurslarini integrasiya qilish, ko'nikma va tajribalarni almashish uchun maktablarni bir-biri bilan bog'lash g'oyasi paydo bo'lgan va bu amalda qo'llanilib, ijobiy natijalar bergan kerakli maslahat va metodik yordamlarni o'z vaqtida olmaydilar. Xalqaro tajribaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, shu muammoni hal qilish maqsadida 1960-yillarda Lotin Amerikasida jamiki, ta'lim resurslarini integrasiya qilish, ko'nikma va tajribalarni almashish uchun maktablarni bir-biri bilan bog'lash g'oyasi paydo bo'lgan va bu amalda qo'llanilib, ijobiy natijalar bergan. Uning asosiy vazifalariga quyidagilar kirgan: tayyorlanayotgan kadr (kompetentligini) sifatini oshirishga, darslardan tashqari mashg'ulotlar davomida maktabda olingan bilimni mustahkamlash va ta'lim muassasasini bitirgandan so'ng to'g'ridan-to'g'ri ish bilan ta'minlanishga, bitiruvchilarni hamkorlikdagi korxonaga nisbatan pozitiv munosabatini ta'minlash (ish shart-sharoitlari bilan yaqindan tanishgan bo'lajak mutaxassis o'zining oldiga malaka oshirgan korxonasida ishlash uchun istak paydo bo'ladi) kabilar. Klaster atamasi yaqinda keng qo'llanila boshlangan so'z bo'lib, ingliz tilidan tarjima qilinganda "klaster" – “to'da”, “bog'”, “shingil” ma'nosini anglatadi. Ilmiy termin sifatida bir necha o'xshash narsalarning guruhlashishi, deb tushunish mumkin. Umumiy klaster modulida bir maktab asosiy, markaziy va lider maqomida bo'ladi va boshqalari esa unga birlashgan maktablar bo'ladi. Asosiy maktab boshqalarini birligini, resurslarni bo'lishishni va shuningdek, pedagoglarni kompetentlik darajasini rivojlanishini nazorat qiladi. Tashlangan element tizim yaxlitlikni buzmaydi. Ta'lim klasterining elementlari - bu tashkilot (universitet, biznes tuzilmasi, ta'lim muassasasi va boshqalar) yoki uning alohida tuzilmalari vazifasini hal qilishda ishtirok etadigan tuzilmalarning kombinatsiyasi bo'lishi mumkin. Ta'lim klasteri ishtirokchilarining tarkibini (uning elementlarini) vaziyatga qarab to'ldirilish mumkin. Klasterda maktab infratuzilmasi - zamonaviy maktab infratuzilmasini ta'minlash bo'yicha chora - tadbirlar ro'yxati turli sohalarda ta'lim muassasalari va tashkilotlar, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, biznes va boshqa muassasalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirishni o'z ichiga olishi kerak.



Infratuzilma ta'lim makonining o'lchamlari va boshqa topologik xususiyatlarini belgilaydi, bu ta'lim xizmatlarining hajmi, ta'lim ma'lumotlarining imkoniyatlari va intensivligi bilan tavsiflanadi. Klasteri shakllantirish jarayoni sheriklar o'rtasida olib tashlangan element tizim yaxlitlikni buzmaydi. Ta'lim klasterining elementlari - bu tashkilot (universitet, biznes tuzilmasi, ta'lim muassasasi va boshqalar) yoki uning alohida tuzilmalari vazifasini hal qilishda ishtirok etadigan tuzilmalarning kombinatsiyasi bo'lishi mumkin. Ta'lim klasteri ishtirokchilarining tarkibini (uning elementlarini) vaziyatga qarab to'ldirilish mumkin. Klasterda maktab infratuzilmasi - zamonaviy maktab infratuzilmasini ta'minlash bo'yicha chora - tadbirlar ro'yxati turli sohalarda ta'lim muassasalari va tashkilotlar, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, biznes va boshqa muassasalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirishni o'z ichiga olishi kerak. Infratuzilma ta'lim makonining o'lchamlari va boshqa topologik xususiyatlarini belgilaydi, bu ta'lim xizmatlarining hajmi, ta'lim ma'lumotlarining imkoniyatlari va intensivligi bilan tavsiflanadi. Ta'lim klasteri - bu maktab infratuzilmasini tashkil etish usullaridan biri, ta'limga bog'liq undagi muassasalar esa - bu infratuzilmaning elementlaridir. Klasteri shakllantirish jarayoni sheriklar o'rtasida ehtiyojlar, texnologiyalar haqida ma'lumot almashishga asoslangan. Klasterli yondashuvda klasterning barcha a'zolari uchun turli aloqa vositalari yordamida erkin ma'lumot almashish va yangiliklarni tez tarqatish imkoniyati mavjud. Klasterli yondashuv metodining rivojlanishini belgilovchi muhim omillaridan biri uning ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan o'zaro aloqaga asoslanligidir. Klaster munosabatlarining asosiy belgilari:

- izchillik
- maqsad birligi;
- Innovatsiyaga yo'nalganlik;
- yaxlitlik;
- sinergetik;
- natijaviylik

Ta'lim klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi, deb fikr bildirish mumkin. Ta'lim klasterlari maktablar, universitetlar, davlat idoralari, notijorat tashkilotlar va biznes kabi bir nechta manfaatdor tomonlarni birlashtirgan holda, umumiy muammolarni hal etish va hamkorlik qilishga, shuningdek, innovatsiya va bilim almashishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukurova, D. S. Q. (2022). Ta'lim klasteri sharoitida inklyuziv ta'limning innovatsion mexanizmlari. *Academic research in educational sciences*, 3(3),
2. O'zbekiston «yetakchi raqamli davlatlar» reytingida «A» guruhidan joy oldi (xabar.uz)
3. Yarashov, M. (2021). Talim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni. Ilmiy nasharlar markazi (buxdu.uz)
3. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // *Uzluksiz ta'lim*. № 1 (86). - S.5
4. Gafforov Ya.X. Toshtemirova. S. (2020). Ways to increase the effectiveness of education in an integrated environment. *International Journal of Current Research and Review*. India.
5. Gafforov Ya.X. (2020). Important aspects of environmental education in the education system. *EPR International Journal. of research & development*. India. 2020. 97.
6. Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). *International Journal on Integrated Education*, 2(5), 212.